
Mirjalolning murojaati ham ijobiy hal etildi

Mirjalol Abdulqosimov shahrimizdagi Farg'ona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabining 2-bosqich talabasi. Otasining vafotidan so'ng, "Jo'ydam" mahalla fuqarolar yig'ini Farg'ona ko'chasi 69-uyda amakisining qaramog'ida yashaydi. Amakisining ikki o'g'li u bilan doim birga, yelkadosh.

Mirjalol o'qishdan tashqari A.Qodiriy massivida dasturlash, shuningdek shahar markazidagi majmuadagi sport to'garagiga ham qatnaydi. Har kuni bir necha kilometr masofani bosib o'tishga to'g'ri keladi.

- Oyog'idagi og'riq tufayli uzoq yurolmas edi. Shahar hokimining qabuliga borib, o'ziyurar velosiped so'rab murojaat qilgan edi, - deydi kelinoyisi Sohibaxon Qurbonova.- Bugun shahar hokimligiga chaqirishib, zamonaviy velosiped berishdi. Jiyanimning xursandchiligi cheksiz. Barchamiz jiyanimning murojaatini e'tiborsiz qoldirmaganliklari uchun minnatdorchilik bildiramiz.

2022-08-18 18:19:27